

## OILADA FARZAND TARBIYASI

Abduxoliqova Shaxnoza

*JDFPU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada oilada ota-ona farzandlari kelajagi uchun qayg'urishi, tug'ilgandan jismonan sog'lom va ruhan tetikligini ta'minlashi bolaning o'z meyyorida o'sishiga zamin yaratishi haqida so'z borgan.*

**Kalit so'zlar:** *Oila, bola, ta'lim, tarbiya, ota, ona, oilaviy munosabat, sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit, ma'naviy yuksalish, jismonan sog'lom rivojlanishi, tabassum, ezgu fazilat, barkamol avlod, mantiqiy fikrlash.*

**Аннотация:** *В данной статье говорится, что родители заботятся о будущем своих детей в семье, заботясь о том, чтобы они были физически здоровыми и психически свежими с рождения, создает основу для того, чтобы ребенок рос в своем собственном темпе.*

**Ключевые слова:** *Семья, ребенок, образование, воспитание, отец, мать, семейные отношения, здоровая духовно-духовная среда, духовный рост, здоровое физическое развитие, улыбка, добродетель, совершенное поколение, логическое мышление.*

**Abstract:** *This article states that parents care about the future of their children in the family, making sure that they are physically healthy and mentally fresh from birth, creates the basis for the child to grow at his own pace.*

**Key words:** *Family, child, education, upbringing, father, mother, family relations, healthy spiritual environment, spiritual growth, healthy physical development, smile, virtue, perfect generation, logical thinking.*

Oila - nafaqat bir yurt, balki umuminsoniyat miqyosidagi katta ijtimoiy institutdir. Shuning uchun ham dunyoda necha xil xalq, necha xil millat, necha xil mamlakat bo'lsa, ular yaratgan adabiyotlar ichida oila, oilaviy munosabatlar, oilaning jamiyatdagi tutgan o'rnini alohida ta'kidlash lozim.

Oilaning barqaror va baxtli xayoti - shu mamlakatning yuzi, obro'si hisoblanadi.

Oilada ota-ona farzandlari kelajagi uchun qayg'urishi, tug'ilgandan jismonan sog'lom va ruhan tetikligini ta'minlashi bolaning o'z meyyorida o'sishiga zamin yaratadi.

Oila shunday bir makonki unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi shaxs shakillanadi, kelajak uchun poydevor qo'yiladi. Har tomonlama osoyishtalik baxti hukmron bo'lgan oilada farzand kamol topar ekan o'z-o'zidan

jamiyatda tinchlik davlatda totuvlik hukmron bo'lishiga zamin yaratuvchi komil insonlar tarbiyalanadi. Aslida inson farzandini baxt va ezgulik uchun dunyoga keltirarkan kelajakda ma'naviyatli, madaniyatli, siyosiy ongli, yaratuvchanlik faoliyatli yuksak darajada bo'lgan farzand tarbiyalashni hohlaydi.

Buning uchun farzand tarbiyasi u tug'ilmasidan avval boshlanishi kerak ya'ni bolani ma'naviy tomonlarga sog'lom bo'lishi uchun ona yaxshi kayfiyatda bo'lishi, sokin musiqalar eshitishi, ezgulikka undovchi kitoblar o'qishi, turli illatlardan saqlanishi, ruhiyatini pok saqlashi, ayniqsa homila davrida to'g'riso'zlikka o'ta ahamiyatli bo'lishi kerak. Bolaning jismonan sog'lom rivojlanishi uchun bo'lsa ona vaqtida orom olishi, ovqatlanish tartibiga alohida e'tibor qaratishi, oila a'zolari tomonidan avaylanishi lozim. Yuqoridagi ikki ma'naviy hamda jismoniy jihatdan avaylangan onadan sog'lom bola dunyoga keladi. Negaki homila aynan onaning vujudida uning barcha sifatleri va ruhiy holati ta'sirida o'sadi va rivojlanadi.

Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Oila kichik Vatan, oila tinch bo'lsa baxtli bo'lsa, Vatan ham tinch bo'ladi" deya takidlab o'tganlar.<sup>20</sup> Haqiqatdan ham oilaning tinch totuv bo'lishi farzandlarning tarbiyasiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Farzandlar tinch totuv oilada tarbiya ko'rar ekan Vatanda tinchlik osoyishtalik hukm suradi. Bizga meros qolgan manbalarning ko'pchiligida bola tarbiyasining uch bosqichda amalga oshishi haqida ma'lumotlar qoldirilgan. Birinchisi munosib jufti halol tanlash, ikkinchisi homila davridagi parvarish, uchinchi farzand dunyoga kelgan kundan boshlab beriladigan tarbiya.

Mana shu uchinchi bosqich farzand tarbiyasida kelajakda o'z o'rnini to'g'ri tanlay olishida eng muhim o'rindir. Farzand tug'ilmasidan avval to'g'ri tarbiya ko'rsa hayotining keyingi bosqichlarida ham ijobiy natijaga erishadi. Ota ona farzandga to'g'ri tarbiya berar ekan eng avvalo tarbiyani o'zlaridan boshlashi kerak. Chunki xalqimizda chiroyli naql bor "qush inida ko'rganini qiladi". Ya'ni Bola eshitganidan ko'ra ko'proq ko'rganini takrorlashga harakat qiladi.

Hususan Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yohud ahloq" asarida bola qo'pol dag'al so'z eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi deb takidlab o'tganlar. Haqiqatdan ham oiladagi muhit bolaning ruhiyatiga har tomonlarga ta'sirini o'tkazadi. Bolalar hech qachon kattalarga quloq solishmagan bo'lishsada, ular kattalarga taqlid qilishda hech qachon hato qilishmagan. Yaxshi ota ona bo'lish uchun har doim g'azablanish kerak.

<sup>20</sup> Mirziyoyev Shavkat Miromonovich 2018-yil 19-20-yanvar kunlari Surxandaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi.

bo'lganda vazmin bo'lish, hafa bo'lish kerak bo'lganda tabassum qilish kerak bo'ladi.

Shu bois ham ota ona bo'lish katta mahorat talab qiladi. Ota onaning o'z farzandiga "sen mening g'urur iftixorimsan" deyishi farzand tarbiyasidagi eng muhim hatti harakatlardan biri deb o'ylayman. Esimda kichik qizaloq bo'lganimda dadajonim "uch og'ayni botirlar" nomli ertak kitob sovg'a qilgandilar. Kitobni so'ngi nuqtasiga yetgumicha ming taasurotlar qiziqishlar bilan o'qigandim. Buni Oila a'zolarim ko'rgach har tug'ilgan kunimda bayramlarda kitoblar sovg'a qilishlari huddi udumday bo'lib qoldi. Tengdoshlarim bayramlarda shirinliklar qo'girchoqlarni sovg'a qilishganini aytib maqtanishardi. Menda har safar qo'limda kitob bo'lardi. O'ylashimcha bularning barchasi oilada farzandga bo'lgan e'tiborga bog'liq. Oilada farzandga qanday munosabatda bo'lsa farzand ham shu muhitda tarbiya ko'rib ulg'ayadi.

Farzand ota onaga gavhar misoli. Ana shu gavharni asrab avaylash har bir ota onaning burchidir. Ana shu burch tufayli jamiyatimizda oilalar tinch va sog'lomdir. Oila bolaning hayot maktabi hisoblanadi. Toki bola oilada tarbiya topib maktab yoshiga yetguniga qadar bag'rikenglik mehridaryolik, kattalarga hurmat tushunchalarini his qila boshlaydi. Ularning asl negizini ustoz muallimlardan o'rganadi. Har bir ota ona o'z farzandini eng bilimdon, mahoratli ustoz ta'limiga berishni hohlaydi. Negaki bola uchun ota ona ko'zgu vazifasini bajarsa ustoz aql, ilm-ma'rifat bulog'i o'rnidadir.

Shunday ekan ko'zgu va ilm ma'rifat bulog'i doimo hamkorlikda ish olib borsa kelajagi buyuk yosh avlodimizdan yana ko'plab Beruniylar, Navoiylar dunyoga kelishiga shak shubha yo'qdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich 2018-yil 19-20-yanvar kunlari Surxandaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi.
2. A. Avloniy "Turkiy Guliston yohud ahloq" Toshkent cho'lpon nashryoti 2018-yil.
3. O. Hasanboyeva "Oila pedagogikasi" Toshkent fan va Texnologiyalar, 2010-yil.
4. M. Mutalipova " Xalq pedagogikasi" Toshkent "Fan va texnologiyalar" 2015-yil.
5. O'zbek xalq maqollari. Toshkent cho'lpon nashryoti 2015-yil.